# BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBAGA ASOSLANGAN METODIK IMKONIYATLARI

Rasulova Kamola Adxamjon qizi

***Annotatsiya.*** *Mazkur tezisda boshlang‘ich matematika ta’limida funksional matematik savodxonlikni rivojlantirishning xorijiy tajribaga asoslangan metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Singapur, Yaponiya, Finlyandiya va Niderlandiya ta’lim amaliyotida qo‘llaniladigan matematik ta’lim yondashuvlarining o‘quvchilarda matematik bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish imkoniyatlari ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *matematik savodxonlik, xorijiy tajriba, matematik kompetensiya, realistik matematika, model-bar, Lesson Study, faoliyatga asoslangan ta’lim.*

Zamonaviy ta’limida o‘quvchining matematik bilimlarni o‘zlashtirishi bilan bir qatorda, ularni kundalik va amaliy vaziyatlarda mustaqil qo‘llay olishi muhim natija sifatida qaralmoqda. OECDning PISA baholash konsepsiyasida matematik savodxonlik matematik bilimlardan real hayot kontekstlarida foydalanish, muammoni matematik jihatdan ifodalash, yechim ishlab chiqish va natijani talqin qilish qobiliyati bilan bog‘lanadi [1]. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda matematik savodxonlikni rivojlantirishning samarali xorijiy metodik tajribalarini o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish dolzarb hisoblanadi.

Mavjud muammo shundan iboratki, matematika fanida o‘quvchilarning hisoblash ko‘nikmalari shakllantirilgani bilan ularning matematik tushunchalarni turli vaziyatlarda mustaqil qo‘llashi har doim ham yetarli darajada ta’minlanmaydi. Mazkur qarama-qarshilikni bartaraf etishda xorijiy ta’lim tizimlarining o‘quvchini matematik fikrlashga, modellashtirishga va mustaqil yechim izlashga yo‘naltiruvchi metodik imkoniyatlaridan foydalanish muhimdir. Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich matematika fanida matematik savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi xorijiy pedagogik tajribalarni aniqlash va ularning metodik imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Tahlil natijasida birinchi muhim imkoniyat sifatida Singapur ta'lim tizimida konkret–tasviriy–abstrakt yondashuv aniqlandi. Mazkur yondashuvda matematik tushuncha dastlab predmet va amaliy harakatlar orqali, keyin tasviriy modellar yordamida, so‘ngra abstrakt matematik belgilar orqali o‘zlashtiriladi[2]. Ikkinchi imkoniyat Niderlandiyadagi Realistik matematika ta’limi bilan bog‘liq bo‘lib, unda matematik tushunchalarni o‘quvchiga tayyor shaklda berishdan ko‘ra, ularni mazmunli vaziyatlar asosida qayta kashf etishiga sharoit yaratiladi. Bu yondashuv matematik modellashtirish va bilimlarni yangi vaziyatlarga ko‘chirishni kuchaytiradi [3]. Uchinchi imkoniyat Yaponiya matematika ta’limidagi Lesson Study va muammoli dars modeli orqali namoyon bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi dars jarayonini oldindan loyihalashtiradi, o‘quvchilarning fikrlash jarayonini kuzatadi va darsdan keyin metodik tahlil asosida ta’lim jarayonini takomillashtiradi [4]. To‘rtinchi imkoniyat sifatida Finlyandiya tajribasidagi fanlararo va faoliyatga asoslangan ta’lim o‘quvchilarning matematik bilimlarini boshqa fanlar hamda amaliy faoliyat bilan bog‘lash uchun metodik asos bo‘la oladi.

Bizning fikrimizcha, ushbu tajribalarni O‘zbekiston boshlang‘ich sinf matematika darslarida bevosita ko‘chirish emas, balki ularning funksional jihatlarini milliy o‘quv dasturi mazmuniga moslashtirish maqsadga muvofiq. Xususan, Singapur modelining vizuallashtirish usullari, Niderlandiya tajribasining matematik modellashtirish imkoniyatlari, Yaponiya tajribasining darsni tadqiq etish mexanizmi va Finlyandiya yondashuvining fanlararo integratsiyasi yagona metodik tizimda uyg‘unlashtirilishi mumkin.

Xulosa qilar ekanmiz, xorijiy tajribalar boshlang‘ich matematika ta’limida funksional matematik savodxonlikni rivojlantirish uchun turli metodik imkoniyatlarni taqdim etadi. Fikrimizcha, ushbu imkoniyatlarni milliy ta’lim mazmuni bilan integratsiyalash o‘quvchilarning matematik tushunchalarni anglash, modellashtirish, turli usullarda yechim izlash va matematik bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1.OECD. *PISA 2022 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science and Financial Literacy*. — Paris: OECD Publishing, 2023.

2.Ministry of Education, Singapore. *Mathematics Syllabus: Primary One to Six*. — Singapore: Curriculum Planning and Development Division, 2021.

3.Van den Heuvel-Panhuizen M. *Realistic Mathematics Education as Work in Progress* // *Theory and Practice in Mathematics Education*. — Dordrecht: Springer, 2001.